

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
--	-------

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
---	-------

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
--	-------

*Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
--	-------

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
---	-------

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46
---	-------

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
---	-------

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
--	-------

*Mamadaliyev Ulug'bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
---	-------

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
--	-------

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82
---	-------

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI ..... 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАБАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ..... 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI ..... 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI ..... 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ..... 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ..... 123-126

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko'ziyevna*

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK ..... 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ..... 134-139

*Rahimova Maftuna*

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ..... 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR ..... 144-147

*Xursanov Nurislom Iskandarovich*

O'ZBEK FRAZEOLIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ..... 148-154

*Umarov Umidjon Akram o'g'li*

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI ..... 155-159

*Облокулова Шахло Асрор қизи*

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ..... 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ..... 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ..... 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
---	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	376-381
--	---------

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## **AXIOLINGUISTIC ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF “COURAGE” AND “COWARDICE”**

**Umarxonova Dilafruz Murotjonovna,**

Termez University of Economics and Service, Foreign Language and Literature (English), master's student

**Abstract.** Axiological features refer to values or moral dimensions associated with certain concepts in a cultural or linguistic context. In this article, the theoretical views on the axiological concept, the axiological features of the use of the concepts of “courage” and “cowardice” in English and Uzbek proverbs are briefly revealed and common and different aspects of English and Uzbek proverbs expressing these concepts are analyzed.

**Key words:** courage, cowardice, concept, axiological concept, value, evaluation.

## **“MARDLIK” VA “QO‘RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI**

**Umarxonova Dilafruz Murotjonovna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Aksiologik xususiyatlar biror bir madaniy yoki lingvistik kontekstda ma'lum bir konseptlar bilan bog'liq qadriyatlar yoki axloqiy o'lchovlarni anglatadi. Ushbu maqolada aksiologik konsept tushunchasiga doir nazariy qarashlar, ingliz va o'zbek maqollarida “mardlik”/ “courage” va “qo‘rqoqlik”/“cowardice” konseptlari qo'llanishining aksiologik xususiyatlari qisqacha ochib berilgan hamda mazkur konseptlarni ifodalovchi ingliz va o'zbek maqollarining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mardlik, qo'rqoqlik, konsept, aksiologik konsept, qadriyat, baholash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N27>

**Kirish.** Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatning ma'naviy sohasi ongning chuqur kognitiv darajasiga ta'sir qiluvchi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'zgarishlar, birinchi navbatda, aksiologik xarakterdagi muammolar bilan bog'liq. Axloqiy me'yorlarni o'zgartirish jarayonida aksiologik konseptlarni o'rganish ayniqsa muhim hisoblanadi. Bunday konseptlarni o'rganish inson tafakkuridagi umuminsoniy va milliy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Aksiologik konseptlar milliy va umuminsoniy xarakterdagi axloqiy, ma'naviy asoslarni to'playdi. Aksiologik konseptlar “qadriyatlar ko'lamini, jamiyatning axloqiy holatini, etnik guruh a'zolarining mafkuraviy munosabati va xulq-atvorini” belgilaydi [5,142]. I.V.Privalova aksiologik konseptlarni “milliy aksiologik tuzilishga ega konseptlar” deb tavsiflaydi. [7, 9-17]. V.Karasikning izohlashicha, mazkur konsept turi “etik-estetik

kategoriyalarning mahsuli sifatida deriktiv xususiyatga ega bo'lgan madaniy qadriyatlarni baholovchi konseptdir" [2,24].

Aksiologik va lingvomadaniy konseptlarning o'xshashligi, sinonimik qo'llanishlarning ko'pligiga qaramay, ular aynan bir xil emas. Moddiy va ma'naviy madaniyatning asosi bo'lgan aksiologik konseptlar madaniy konseptlardan umuminsoniy xarakteri bilan ajratib turadi. Aksiologik konseptlar antropotsentrikdir. Ular tilni statik tizim sifatida emas, balki shaxs va xalqqa bog'liq tizim sifatida taqdim etadilar [6]. Aksiologik konseptlar ma'naviy qadriyatlarning, ya'ni umuminsoniy xarakterdagi odob va axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi. Lingvistik va madaniy konseptlar esa moddiy qadriyatlarni ko'proq, ma'naviy qadriyatlarni esa kamroq darajada aks ettiradi.

Aksiologik va lingvomadaniy konseptlarning umumiy xususiyatlariga, ularning ong bilan belgilanadigan mental xususiyatga ega ekanligi, har ikkala tur konseptlar ongda yashashi va ong tomonidan tizimlashtirilishini kiritish mumkin. Aksiologik va lingvomadaniy tushunchalarning yana bir umumiy xususiyati qadriyat komponentining mavjudligidir. Madaniyatning markazida har doim madaniyatni o'rganishga yordam beradigan qadriyat atributi mavjud va konseptning markazida qadriyat turadi [3]. Voqelikni idrok etish jarayonida inson qadriyatni belgilaydi. "Yaxshi" yoki "yomon" pozitsiyasidan baholangan hodisa ma'lum bir madaniyat doirasida konseptni shakllantiradi.

"Shuni ta'kidlash joizki, konseptlarning aksiologik xususiyatlarini o'rganish insonning dunyoga, uning obyektlariga, hodisalariga, munosabatlariga baho berishi bilan bog'liq bo'ladi. Insonning baholash qobiliyati orqali bu olamdagi narsa va hodisalarga mazmun kiradi va qadriyati ahamiyati aniqlanadi" [8,13].

N.D.Arutyunova baholashning muhim xususiyati haqida quyidagicha fikr bildiradi. Baholash etnik guruh vakili ongida konseptni shakllantiruvchi asosiy jarayondir. Baholash jarayonida qiyin nuqta shundaki, aksiologik konseptlar, bir tomondan, atrof-muhitga bog'liq bo'lsa, boshqa tarafdin, bog'liq emas. N.D.Arutyunovanning fikricha, baholash jarayoni baholovchining hayoti bilan bog'liq, lekin shaxsning o'zi bu hayot yoki muhit emas. Bu yerda insonning vazifasi voqelik hodisalarini uning ongida mavjud bo'lgan ideal obraz bilan bog'lashdan iborat [1, 61].

**Muhokama.** Aksiologiya (yun. Axia – qimmat, qadr va logiya) – qadriyatlar to'g'risidagi fan [9,12] bo'lib, uning asosiy kategoriyasi "qadriyat" so'zi izohli lug'atda "voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha" sifatida ta'riflanadi [10, 207].

Tilshunoslikning bir bo'limi bo'lgan aksiolingvistika tilning madaniy qadriyatlarni aks ettirishi va o'zida mujassamlashini o'rganadi. "Aksiolingvistika predmeti sifatida qadriyatlarni ifodalovchi va aksiologiyani shakllantiruvchi lisoniy vositalar; vazifasi o'rnida qadriyatni til birliklarining tarkibiy qismi sifatida reallashtirish, maqsadi sifatida dunyoning qadriyat manzarasini tadqiq etish belgilangan. Demak, aksiologik qarashlarning muayyan til birliklari orqali ifodalanish darajasini tahlil qilish natijasida aksiolingvistika shakllandi" [4,12].

Maqollarni tahlil qilishda aksilingvistika til, madaniyat va qadriyatlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni aksiologik nuqtai nazardan sinchiklab ko'rib chiqish orqali har bir jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi va e'tiqod tuzilmalarini ochish mumkin.

Tabiyki, ingliz va o'zbek tili vakillari turli milliy, etnik-madaniyat sohiblari bo'lganligi sababli ularning maqollardagi mavjud konseptlarni o'rganish madaniy farq va o'xshashlikni anglash uchun muhim hisoblanadi.

Aksiologik konseptlar lug'atning maxsus qatlamini tashkil etuvchi mavhum otlar yordamida ifodalanadi. Ingliz va o'zbek konseptual manzarasida "muhabbat", "nafrat", "yaxshilik", "yomonlik", "mardlik", "qo'rqqoqlik" kabi konseptlarning aksiologik xususiyatlarini tahlil qilish ikkala tilda ham ushbu tushunchani o'rab turgan qadriyatlarini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada biz "mardlik" va "qo'rqqoqlik" konseptlarining ingliz va o'zbek tillari maqollarida namoyon bo'lishining aksilingvistik tahlilini o'rganamiz.

**Natijalar.** Ingliz tilida "courage" (mardlik) konsepti ko'pincha kuch, jasorat, botirlik va qiyinchiliklarga dosh berishga tayyorlik bilan bog'liq. Bu "Fear can keep a man out of danger, but courage can support him in it", "Fortune favours the bold" kabi maqollarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hikmatlarda chinakam jasorat shunchaki qo'rqmaslik emas, balki qo'rquv va qiyinchiliklarga qarshi turishda bo'ladi, degan g'oya alohida ta'kidlangan. Quyidagi maqolda "mardlik" ezgulik ruhi bilan tenglashtiriladi: *Courage and resolution are the spirit and soul of virtue.*

Ingliz maqollarida mardlik, jasurlik xususiyatlarilari mehribon, saxiy qalbga egaligi, ko'rkamligi, sinovlarga bardoshligi bilan belgilanadi: *A valiant man's look is more than a coward's sword. The weapon of the brave is in his heart. Bold men have generous hearts. A brave man may fall, but he cannot yield. To a brave and faithful man nothing is difficult.* Jasorat ortilmaydigan tug'ma xislat ekanligi urg'u beriladi: *Valour is born with us, not acquired.*

Biroq soxta jasoratni aks ettiruvchi maqollar "mardlik" konseptining aksilqadriyatini ifodalaydi. Masalan, "Who takes a lion when he is absent, fears a mouse present", "Every dog is a lion at home", "Every cock will crow upon his own dung-hill". Ushbu maqollarda it (dog), xo'roz (cock), sichqon(mouse) zoonimlari orqali qo'rqqoqlik kishi va sher (lion) orqali esa kuchli, jasur odam obrazi ifodalangan.

O'zbek maqollarida ham mardlik – arslon, *yo'lbars*, qo'rqqoqlik – sichqon obrazlari bilan ifodalanganligini kuzatish mumkin: *Arslon bolasi arslon bo'lur, Sichqon bolasi – sichqon; Arslon og'zidan ov olinmas; Yo'lbars tulki izidan yurmas.*

Ingliz maqollaridagi "cowardice" (qo'rqqoqlik) konsepti esa ko'pincha qat'iyatsizlik va o'zini himoya qila olmaslik bilan bog'liq. *"Cowards die many times before their deaths", "The coward's weapon is the tongue", "Cowards run the greatest danger of any man in a battle"* kabi maqollar qo'rqqoqlik xulq-atvoriga nisbatan kuchli salbiy konnotatsiyani bildiradi va bu fe'l-atvor kamchiligini bartaraf etish zarurligini ko'rsatadi.

Qo'rqqoqlikning sharmandali illat ekanligini namoyon etgan ingliz maqollarini ham kuzatishimiz mumkin. *Cowardice is afraid to be known or seen. Better die with honour than live with shame. "Better die on your feet than live on your knees." Of cowards no history is written.*

O'zbek tili va madaniyatida "mardlik" va "qo'rqqoqlik" konseptlarini ifodalagan maqollarning aksariyatida bu ikkala konsept bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi va ularda ko'pincha ijobiy+salbiy aralash baholash mavjud bo'ladi. *Mardni el sevar, Nomardni kim sevar; Mard tuzar, nomard buzar; Mardni maqtamasang ham – mard, Nomardni maqtasang ham – dard; Marddan ot qolur, Nomarddan – dod.*

O'zbek maqollarida mardlikning belgilari sifatida donolik (mas: *Maslahatni marddan so'ra*), ko'rkamlik (*Mardlik – kishining husni*), mehnatsevarlik (*Mardning ishi – mehnatda*,

*Nomardning kuchi – ogʻzida*) kabi fazilatlar taʼkidlanadi. Mardlikning asl mohiyati nafaqat jismonan kuchli, balki qalban botir, mehribon va adolatli boʻlishlik bilan belgilanadi. Masalan: *Mardlik yiqitmoq emas, turgʻizmoq; Mard boshini qilich kesmas; Mardlik – mangulik.*

Fikrimiz isboti sifatida, *“Bitmas ishning boshiga, Botir kelar qoshiga”* maqolining maʼnosi koʻrib chiqamiz “ayrim odamlarga ogʻir, mushkul, bajarishning iloji yoʻqday tuyulgan ishni mard, botir, epchil mehnat mashaqqatidan qoʻrqmaydigan odam kelib yuzaga chiqarib beradi [11,52].

Oʻzbek maqollarida qoʻrqoqlik qattiq qoralanadi: *Qochoqqa shafqat yoʻq, Qoʻrqoqqa — hurmat; Qoʻrqoq itning quyruqʻi qisiq.*

Quyidagi maqollar qoʻrqoqlikning belgilarini koʻrsatib berishi bilan ham ajralib turadi: *Qoʻrqoq koʻzidan maʼlum; Qoʻrqoq avval musht koʻtarar; Qoʻrqoq ot oʻz soyasidan hurkar; Eshakning qoʻrqoqʻi suvdan oʻtmas.*

*“Andishaning oti – qoʻrqoq”* maqolida oʻzbek tili madaniyatiga xos boʻlgan, boshqa tillarga tarjima qilish qiyin boʻlgan “andisha” tushunchasi qoʻrqoqlik kabi salbiy xislatga tenglashtirilishida chuqur falsafa yotadi. Baʼzilar oqibatini oʻylab yoki yuz-xotir qilib, mulohaza yuritib qaʼtiy harakatlar qilmagan odamni qoʻrqoq deb hisoblashadi.

**Xulosa.** Ingliz va oʻzbek maqollaridagi “mardlik” va “qoʻrqoqlik” konseptlarining aksiologingvistik tahlili bu qadriyatlarning ifodalanishi va tushunilishining nozik va oʻziga xos madaniy usullarini ochib beradi. Ikkala til ham mardlikning muhimligini tan olsa-da, oʻziga xos maʼnolar va bu konseptlarni shakllantirish va ustuvorlik qilish usullari har xil boʻlib, til sohiblarining noyob madaniy va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, ingliz va oʻzbek tillaridagi maqollarning aksiologingvistik tahlili madaniy qadriyatlar va lingvistik omillarni chuqur oʻrganish imkonini beradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – С.338.
2. Карасик В.И. Языковые ключи. – М.: Гнозис, 2009. – С.24.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
4. Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 50 б.
5. Форофонтова Ю.Л. Аксиологический концепт сквозь таксономическую призму (на примере концепта судьба) //Вестник ТГУ, 2008. – С.141-145.
6. Попова З.Д. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
7. Привалова И.В. Языковое сознание: этнокультурная маркированность. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2006. – 50 с.
8. Tadjiyeva M.F. Ingliz va oʻzbek tillarida Love/Muhabbat konseptining representatsiyasi. Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2024. – 56 b.
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Қ –ҳарфи. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2000. – 476 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. Шукрона – Х/ Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Т.: “Oʻzbekiston nashriyoti” давлат унитар корхонаси, 2020. – 591 б.

11. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani, Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004 – B. 448.
12. Ўзбек халқ мақоллари (2-томлик)/ (Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов) – 1-т. Тошкент, “Фан”, 1987. – 368 б.
13. Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. – Ware, Hertfordshire: Wordsworth Editions Ltd, 1993. – 721 p.
14. Fayzullaevna T. M. The Concept “Love For The Homeland” In The English And Uzbek Proverbs //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).